Egamnazarov Bobur (O‘zDJTU tadqiqotchisi)

JURNALISTIKADA IXTISOSLASHUV VA QURILISH TEMATIKASINI YORITISHDAGI O‘ZIGA XOSLIKLAR

Annotatsiya. *Jurnalistika sohasida kadrlar tayyorlashda bir nechta yondashuv mavjud. Jumladan, ayrim mutaxassislar universal jurnalistlar zarurligi haqida gapirsa, ayrimlari esa ixtisoslashuvni qo‘llab-quvvatlashadi. Mazkur maqolada qurilish sohasidagi asosiy jarayonlarini yoritishda jurnalistikaning o‘rni, sohaga ixtisoslashuv, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va qurilish tashkilotlarining ommaviy axborot vositalari bilan hamkorligi masalalariga e’tibor qaratiladi.*

Kalit so‘zlar: *jurnalistika, universallashuv, ixtisoslashuv, qurilish tematikasi jamoatchilik nazorati.*

Эгамназаров Бобур (исследователь, Узбекский государственный университет Журналистики и массовых коммуникаций)

СПЕЦИАЛИЗАЦИЯ В ЖУРНАЛИСТИКЕ И ОСОБЕННОСТИ ОСВЕЩЕНИЯ СТРОИТЕЛЬНОЙ ТЕМАТИКИ

Аннотация. *Существует несколько подходов к подготовке кадров в области журналистики. Некоторые специалисты утверждают, что необходимы универсальные журналисты, в то время как другие поддерживают специализацию. В данной статье рассматривается роль журналистики в освещении ключевых процессов в строительной сфере, важность специализации в этой области, усиление общественного контроля и сотрудничество строительных организаций со средствами массовой информации.*

Ключевые слова: *журналистика, универсализация, специализация, строительная тематика, общественный контроль.*

Egamnazarov Bobur (Young Researcher, Uzbek State University of Journalism and Mass Communications)

SPECIALIZATION IN JOURNALISM AND PECULIARITIES OF COVERING CONSTRUCTION THEMES

Annotation. *There are several approaches to training personnel in the field of journalism. Some experts argue that universal journalists are necessary, while others support specialization. This article focuses on the role of journalism in covering key processes in the construction sector, the importance of specialization in the field, strengthening public oversight, and cooperation between construction organizations and the media.*

Keywords: *journalism, universalization, specialization, construction themes, public oversight.*

Kirish (Intrudiction). Keyingi yillarda uy-joy qurilishi sohasi keng rivojlandi va mamlakatning barcha hududlari bunyodkorlik maydoniga aylandi. O‘z-o‘zidan ommaviy axborot vositalarida ham qurilish mavzusini yorituvchi alohida yo‘nalish bo‘lib shakllandi. Mazkur mavzuni keraklicha va tushunarli qilib yoritish e’tibordan chetda qolayotgan soha sifatida baholanayotgan edi. E’tibor berilsa, qurilish tematikasi davlat medialarida deyarli berilmasdi. So‘nggi yillarda esa bu yo‘nalishda bir qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining matbuot xizmati tubdan isloh qilinib, vazirlik qoshida “O‘zbekiston bunyodkori” gazetasining tahririyati ish boshladi. Nashrda berilayotgan maqolalar kontenti va saviyasi oshirilib, hududiy muxbirlar ko‘paytirildi. Gazeta hafta 1 marta chop etilmoqda. Har oy jurnalistlar uchun brifing va matbuot anjumanlari o‘tkazilmoqda. Matbuot xizmati bilan hamkorlikda tayyorlangan materiallar teleradiokanallar orqali ommaga taqdim etilmoqda. Vazirlik qoshida faoliyat yurituvchi nazorat qiluvchi inspeksiya qurilish sohasidagi korrupsion holat hamda buyurokratik to‘siqlarni bartaraf etishda muhim o‘rin tutmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). AQSHning Janubiy kaliforniya universitetida “Ixtisoslashgan jurnalistika magistri” dasturi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanadi [1]. O‘qitiladigan fanlar xususida gapirganda, jurnalistikaning eng ommabop tiplariga alohida e’tibor qaratilgan. Rossiyaning Smolensk davlat universitetida “Ixtisoslashgan jurnalistika” bo‘yicha alohida kurs o‘qitiladi [2]. Unda ilmiy jurnalistika, iqtisodiy jurnalistika, 60 dan oshganlar uchun medialar, ayollar va erkaklar jurnalistikasi kabi yo‘nalishlarda alohida mavzular kiritilgan. Mamlakatimizda jurnalist kadrlar tayyorlanadigan oliy o‘quv yurtlarida ixtisoslashuvga keng e’tibor beriladi. N.Qosimova va boshqalar tomonidan nashrga tayyorlangan ilmiy-ommabop nashrga jurnalistikaning 13 yo‘nalishi kiritilgan [3].

Jurnalistikaning eng ommabop bo‘lgan yo‘nalishlari (sport, ekologiya, iqtisodiy medialar kabi)da ko‘plab ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan, kitoblar yozilgan. Misol uchun, rossiyalik olim P.I.Chukov tomoni-

dan ixtisoslashgan gazetalar nashr turi sifatida o‘rganilgan. Unda masalaga auditoriyaning demografik xususiyatlari (bolalar va o‘smirlar, yoshlar, erkaklar va ayollar va boshq.) va aholi qiziqishlari(sport, iqtisodiy, avtomobil ishqibozlari kabi)dan kelib chiqib yondashilgan [4]. Ammo jahon miqyosida ham, O‘zbekistonda ham qurilish mavzusini mediada yoritish bo‘yicha deyarli tadqiqot olib borilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotni o‘tkazish davomida tahlil, kontent tahlil, qiyosiy tahlil, kuzatuv, umumlashtirish kabi ilmiy usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Jurnalistika – axborotni yig‘ish, tahlil qilish va tarqatish amaliyotidir. Ixtisoslashgan jurnalistika esa mavzusi, maqsadi, dasturi, tematik yo‘nalishi kabi jihatlarni qamrab oluvchi medialar bo‘lib, auditoriyaning aniq manfaatlarini hisobga olgan holda faoliyat olib boradi. “Kadrlar yetishmasligi bois turli mavzularni yoritishga majbur bo‘lgan “universal jurnalistlar” davri o‘tdi. Zamon o‘zgardi, shunga yarasha jurnalistlarga qo‘yiladigan talablar ham o‘zgacha. Yoritmoqchi bo‘lgan sohasini yaxshi bilmagan jurnalist, albatta, muhim va qiziqarli material tayyorlay olmaydi” [3]. Qurilish va qurilish sanoati kontekstida jurnalistika yangiliklar, tendensiyalar, innovatsiyalar va ushbu sohaga ta’sir qiluvchi muammolar haqida xabar berishni o‘z ichiga oladi. Sohaga doir ishonchli manbalarni olish uchun arxitektorlar, muhandislar, pudratchilar, yetkazib beruvchilar, tartibga soluvchilar, siyosatchilar va boshqa manfaatdor tomonlar kabi asosiy ishtirokchilar bilan suhbatlar o‘tkazishni qamraydi [5].

Qurilish sohasi jurnalistikasi xavfsizlik muammolari, atrof-muhitga ta’sirni baholash, qurilishni standartlashtirish qoidalari, ruxsatnoma va litsenziyalash talablari bilan bog‘liq voqealarni tekshirishni o‘z ichiga oladi. Ushbu sohaga ixtisoslashgan jurnalistlar o‘z auditoriyasi uchun murakkab tushunchalarni oddiy tilga tarjima qila olishlari uchun sanoatda qo‘llaniladigan texnik atamalarni tushunishlari talab qilinadi. Bundan tashqari, qurilish va qurilish sohasi jurnalistlari xabar berishda aniqlik, adolat, xolislik kabi axloqiy me’yorlarga rioya qilishlari ham muhim sanaladi. Shuningdek, ular o‘z hisobotlari natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvlariga ham tayyor turishlari zarur. Ya’ni, qurilish kontekstidagi jurnalistika tadqiqot va asosiy ishtirokchilar bilan suhbatlar orqali ushbu sektorning turli jihatlari haqida ma’lumot to‘plash jarayonini anglatadi. Maqsad axloqiy me’yorlarga rioya qilgan holda yangiliklarni xolis yetkazishdir.

Hozirgi vaqtda medialarda qurilish jarayonlarini yoritish sekinlik bilan ketmoqda. Sohani rivoji va yoritilishi uchun ixtisoslashgan jurnalistlarning kamligi, sayt hamda telekanallarda sohani yoritish uchun malakali jurnalistlarning yetishmasligi sabab soha doirasida amalga oshirilayotgan islohot, o‘zgarishlarni ommaga yetkazishda muammolarga duch kelinmoqda. Sohani yorituvchi ixtisoslashgan nashrlarning deyarli mavjud emasligi ham fikrimizni tasdiqlaydi. Biroq so‘nggi yillarda sohadagi islohotlarni yoritish doirasida yangi bosqichga qadam qo‘yildi. Jumladan, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi va uning tassarufidagi tashkilotlar mahalliy medialar bilan doimiy hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi. Chunki sohaga bo‘lgan talab keskin oshdi. Aholidan uy-joylar sifati va xaridlar masalasiga oid murojaatlar ko‘paydi. Shularga javoban, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining rasmiy sayti, ijtimoiy tarmoqlar orqali berib borilayotgan materiallarining saviyasiga e’tibor kuchaydi. Xususan, quruvchi pudrat tashkilotlarning huquqiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish maqsadida bir nechta rukn asosida videomateriallar doimiy e’lon qilindi ammo ushbu jarayonlarni yoritish doirasida kamchiliklar aniqlandi. Auditoriya e’tiborini tortishdagi asosiy kamchiliklar:

– materiallar xilma-xilligining pastligi;

– mavzularning o‘xshashligi;

– tanqidiy yondashuvning yetishmasligi kabilar.

Shuningdek, kengroq auditoriyani qamrab olishdagi muammolar sifatida tayyorlanayotgan materiallar vazirlikning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari va respublika telekanallarida efirga uzatilishi bilan birga auditoriyasi keng bo‘lgan ijtimoiy tarmoqlar orqali tashviqot ishlarini amalga oshirilishining yetishmasligi ham kuzatiladi.

Yuqorida tilga olingan muammolarni bartaraf etish uchun:

– lavhalarda rang-baranglikni oshirish;

– qiziqarli mavzularni olib chiqish uchun soha mutaxassislari bilan bir qatorda, quruvchi pudrat tashkilotlarini jalb qilish;

– bir xillikdan qochish va tayyorlanayotgan lavhalarga kreativ yondashuvni kuchaytirish;

– yosh auditoriyani jalb qilish uchun raqamli platformalarda qisqa videolavhalar tayyorlash va shu orqali targ‘ibotni kuchaytirish;

– mahalliy telekanalla bilan hamkorlikda “Qurilishda bir kun” ruknini tashkil etish.

Qurilish sohasidagi yangilik va o‘zgarishlarni ko‘rsatish, qurilish sifati va jarayonni yoritish bu sohaga dahildor bo‘lmagan insonlar uchun ham qiziq mavzu bo‘lib kelgan. Agar mavzu qanchalik qiziq bo‘lsa, media vakillari tashkilot bilan doimiy hamkorlikni o‘rnatishga harakat qilishadi. Televideniyada qurilish sohasidagi mavzularini yoritishning samarali yo‘llaridan yana biri xalqaro tajribalarni o‘rganish va ulardan foydalanishdir. Masalan, Yevropada har bir qurilish obyekti uchun quruvchi tashkilot tomonidan axborot xizmati xodimi yollanadi, unga yuklatilgan asosiy vazifa esa qurilish jarayonlarini tasvirga olib, oylik hisobotlarni tasvirlar orqali umumlashtiradi. Uy xarid qiluvchilar qurilishning sifati haqidagi dastlabki ma’lumotlarni ma’sul xodimlar va yollangan mutaxassis tomonidan tayyorlangan videolavhalar orqali ham bilib olishadi. O‘zbekiston hududida ham ushbu amaliyotni tajriba sifatida qo‘llab ko‘rish orqali ham yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali qurilish jarayonlarini yoritish nafaqat tomoshabinlar auditoriyasini kengaytirish, balki qurilishda sifat nazoratini kuchaytirishga qurilishda jamoatchilik nazoratini asosini yaratishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu yondashuv mamlakatdagi bunyodkorliklar orqali O‘zbekiston imijini ham yuqori darajaga olib chiqishga yordam beradi.

Jamoatchilik nazoratiga mahallalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish asosida erishiladi. Bu noqonuniy qurilishlarni oldini olishda eng samarali yo‘l hisoblanadi. Mahalla hududida bo‘layotgan har qanday qurilishdan ushbu hudud fuqarolari xabardor bo‘lishi tayin. O‘zboshimchalik bilan boshlangan qurilish ishlari (ko‘p qavatli uylar, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish binolari va boshq.) haqida Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qurilish inspeksiyasinining ishonch telefonlariga qo‘ng‘iroq qilish orqali hamkorlik yo‘lga qo‘yilishi va noqonuniy qurilishlarning oldini olish mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Kelgusida qurilish mavzularni yoritish samaradorligini oshirish uchun quyidagilarga e’tibor qaratish talab qilinadi:

1. Auditoriya tahlili: tomoshabinlarning talab va qiziqishlarini o‘rganish orqali kontentlar dolzarbligini oshirish.

2. Multimediaviy yondashuv: televideniya, internet va ijtimoiy tarmoqlarda kontentni sinxron yoritish orqali kengroq auditoriyani qamrab olish.

3. Ixtisoslashgan jurnalistlarni tayyorlash: qurilish mavzularni chuqur tushunadigan va zamonaviy jurnalistik ko‘nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlashga e’tibor qaratish.

4. Innovatsion ko‘rsatuv formatlari: qurilish kompaniyalarining ish jarayonidagi holatlar asosida hujjatli filmlarni suratga olish.

5. Soha mutaxassislari ishtirokidagi zamonaviy formatdagi tok-shoular, debat va interaktiv dasturlarni tayyorlash.

Xulosa qilib aytganda, bu kabi targ‘ibot ishlarni ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikni amalga oshirish, noqonuniy qurilishlarga yo‘l qo‘ymaslik, fuqarolarning aldanib qolishlarining oldini olish, bundan tashqari, pudrat tashkilotlari vakillarinining qonuniy faoliyat olib borishlariga ko‘maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). https://ru.studyqa.com/program/specialized-journalism-master-in-university-of-southern-california,10.03.2025.

(2). https://smolgu.ru/upload/educational_process/2023/rp_SMI/,10.03.2025.

(3). Қосимова Н. ва бошқ. Ихтисослашган журналистика. IX jild, T., “Ўзбекистон”, 2019, 3-бет.

(4). https://www.dissercat.com/content/spetsializirovannye-gazety-kak-tip-izdaniya, 10.03.2025.

(5). https://construo.io/tags/journalism,10.03.2025.

Kallibekova Gulnara Palbekovna (PhD, QMU dotsenti)

LEKSIK BIRLIKLARNI TO‘G‘RI QO‘LLASHDA JURNALIST MAHORATI

Annotatsiya*. Gazeta tilidagi perifrazalar, maqollar, iboralarni ishlatishda jurnalist mahorati haqida so‘z yuritiladi. Xususan, o‘rin-joy nomiga aloqadar perifraza, narsa, buyumlar nomiga aloqadar perifrazalar, shaxs nomi bilan aloqadar perifrazalar, shahar nomi bilan aloqadar perifrazalar, son bilan aloqadar perifrazalar misollar orqali ko‘rsatib berilgan. Axborot yozishda qisqalik va aniqlik asosiy talablarning biri ekanligi tushuntirilgan. Qator gazeta materiallari maxsus ruknlar misolida tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *sarlavha, matn, fakt, gazeta, gazeta tili, rukn, muallif, jurnalist.*